

“TASDIQLAYMAN”
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Farg‘ona filiali direktori

_____ F. Muxtarov
2024-yil 29-avgust

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Farg‘ona filiali Kengashining 1-yig‘ilishi
b a y o n n o m a s i

2024-yil 29-avgust

Farg‘ona shahri

Qatnashdilar – Kengash a‘zolaridan 28 nafari, taklif qilinganlar.
Yig‘ilish raisi – F. Muxtarov.

K u n t a r t i b i d a :

I. Filial direktorining ma‘ruzasi.
Axborotchi: F.Muxtarov.

Asosiy masalalar:

II. Ijro intizomi haqida.

Axborotchi: A.Abdulxamidov.

III. Filialning 2024/2025-o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida.

Axborotchilar: T.Abdullayev, Sh.Umarov, fakultet dekanlari.

IV. Kafedralarning yillik ish rejalarini, ishchi o‘quv fan dasturlarini, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini, fanlardan o‘quv-uslubiy majmualarini, ma‘ruza mashg‘ulotlari olib boruvchi assistent-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlash.

Axborotchilar: Sh.Umarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari.

V. Filial Kengashi ish rejasi, a‘zolari ro‘yxati va Boshqaruv yig‘ilishi a‘zolari ro‘yxati, fakultetlar, Akademik litsey, TTJ, ARM, RTTM va bo‘limlarning yillik ish rejalarini, Maslahat Kengashi, Vasiylik Kengashi, Jamoatchilik Kengashi, Xotinqizlar qo‘mitasi, rag‘batlantirish bo‘yicha Kengashlar, iqtidorli talabalarni davlat va nomdor stipendiyalariga taqdim etish Kengashi rejaları va a‘zolari ro‘yxati hamda filial fakultetlari, kafedralari va bo‘limlari ish rejaları va Nizomlarini tasdiqlash.

Axborotchilar: kengash kotibi, direktor o‘rinbosarlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari.

VI. Turli masalalar.

1. Ilmiy-uslubiy ishlarni nashrga tavsiya etish haqida

Axborotchi: Sh. Umarov, B. Polvonov.

2. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbarlarni tayinlash to'g'risida.

Axborotchi: S. Zokirov.

Kun tartibining birinchi masalasida filial direktori F.Muxtarovning ma'ruzasi eshitildi.

Ассалому алайкум, ҳурматли Кенгаш аъзолари, азиз устозлар, профессор-ўқитувчилар! Сиз азиз жамоам билан яна янги ўқув йилини бошлаш арафасида турганимиздан бенихоя хурсандман. Ушбу фурсатдан фойдаланиб барчангизни халқимизнинг энг улуғ, энг азиз байрами – Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 33 йиллиги билан самимий муборакбод этаман. Шундай кутлуғ дамда барчангизга тинчлик-хотиржамлик, сиҳат-саломатлик, оилангизга фаровонлик тилайман. Сиз билан биз шундай бахтли одамлармизки, мана 33 йилдан буён аждодларимиз узоқ йиллар орзиқиб кутган эркин ва озод мамлакатда яшаяпмиз. Энг муҳими, мамлакатимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш ва унинг тараққий этган давлатлар қаторига қўшилишига ўз меҳнатимиз билан ҳисса қўшмоқдамиз.

Яна бир бор мустақиллик байрами барчангизга муборак бўлсин! Ҳар биримиз учун кудрат манбаи, саодат маскани бўлган жонажон Ўзбекистонимиз осмони доимо мусаффо бўлсин!

Мазкур ўқув йилидан бошлаб, маънавият йўналишидаги филиал ходимларига бериладиган ҳар бир **ташаккурномага базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баробарида, фахрий ёрликқа эса меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори бир баробарида** моддий рағбатлантириш белгиланишини маълум қиламан.

Бир фаришта борки, у доим ўзгаларга яхшилик улашгиси келади. Инсон ўзи доим яхшиликка жуда ҳам ташна бўлади. У ким бўлмасин, бой бўладими, камбағал бўладими, фақир бўладими. Мана шундай яхшиликка ташна етим болаларга беминнат ёрдам қўлини чўзган, уларни 10 нафаридан кўпроғининг контракт тўловларини тўлаб берган бир фариштасифат инсон ҳозир орамизда ўтирипти. У инсон Ташланова Нигора Жўраевна!

Ахборот таълим технологиялари кафедраси мудири Отажонов Жамшид Машрабжонович ишчанлиги ҳамда фидокорона меҳнати учун унга нисбатан қўлланилган **ҳайфсан интизомий жазо чораси** бекор қилинишини маълум қиламан.

Kengash a'zolari berilgan takliflarni bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Ҳурматли жамоа! Бугунги йиғилишимизда жорий йилининг июль ҳамда август ойлари давомида филиал раҳбарияти, ходимлари ва профессор-ўқитувчилари томонидан стратегик режада белгиланган муҳим вазифалар асосида амалга оширилган ишлар ҳамда қўлга киритилган ютуқлар ҳақида куйидагиларни эътиборингизга ҳавола қилмоқчиман.

Янги 2024-2025 ўқув йилига тайёргарлик кўриш, олийгоҳ профессор-ўқитувчилари ва ходимларининг самарали фаолият олиб боришлари ҳамда талабаларимизнинг янада шижоат билан таълим олишларини таъминлаш мақсадида бир қатор бунёдкорлик ишлари жадал суръатларда ташкил этилди ва қурилиш-таъмирлаш ишлари якунига етказилмоқда.

Шунингдек, филиал талабаларининг бўш вақтларини мазмунли ўтказишларини таъминлаш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ҳамда спорт билан эркин шуғулланишлари учун “**Workout**” майдони барпо этилмоқда.

Шу билан бирга, филиалнинг моддий-техник базасини янгилаш давом эттирилиб, профессор-ўқитувчилари ҳамда талабаларга қулайликлар яратиш, хоналардаги ҳаво шароитини қулай ҳолатда сақлаб туриш мақсадида (совитувчи ва иситувчи) агрегат, механизм кондиционерлар келтирилиб, ўрнатилди.

Ҳеч кимга сир эмаски, филиалимизда яқин йилларгача фақат раҳбарларнинг хонасида кондиционер бўларди. Ҳозир эса барча хоналар 500% кондиционер билан таъминланди, хаттоки қоровулларимизнинг хоналарига ҳам кондиционерлар ўрнатиб берилди. Бундай шароит яна қаерда бор?! Бунга фақат шукр қилишимиз керак ва, албатта, сидқидилдан ишлашимиз керак.

Бундан ташқари, замонавий талабларга жавоб берадиган, энг сўнгги параметрларга эга бўлган дастурлаш ва график муҳит учун мўлжалланган, талабалар ўз устида профессионал даражада ишлашлари учун замонавий компьютерлар сотиб олинди. Натижада, филиалда компьютер билан жиҳозланган аудиториялар сони яна биттага кўпайди.

Шунингдек, филиалнинг барча ўқув хоналари замонавий талабларга жавоб берадиган **интерактив сенсорли панеллар** билан жиҳозланди.

Филиал ходимларининг ўз вақтида ишга келиб кетишларини таъминлаш мақсадида асосий бинонинг кириш қисмига замонавий **турникет** қурилмаси ўрнатилди.

Таълим сифатини ошириш, профессор-ўқитувчилар ҳамда талабаларга янада қулай шарт-шароит яратиш мақсадида ўқув хоналарига замонавий стол-стуллар келтирилди.

Филиалдаги деярли барча хоналар, хаттоки энг охириги хона Райимов Абдулхамиднинг хонасигача ламинат пол қопламаси ўрнатилди.

Яна бир яхши янгилик. Бундан буён энди хизмат машинасидан филиалнинг барча бўлимлари ва марказлари фойдаланиши мумкин бўлади.

Филиалимизнинг йилдан йилга ошиб бораётган нуфузини иқтидорли талабалар ютуқлари билан чамбарчас боғлар эканмиз, ютуқларга монанд равишда ўқув даргоҳининг ҳам тубдан ўзгараётганлигини, янгича жиҳозлар-у, шинам хоналар, спорт майдончалари-ю, замонавий технологиялар билан таъминланаётганлигининг гувоҳи бўламиз.

Бу ишлар ҳали бошланиши! Агар сизлар оралариздаги ортиқча бўлар-бўлмас гапларни йиғиштириб, манга янада ишонч бериб, қўллаб-қувватлаб турсаларингиз, мен бундан куч олиб, филиалимизни республикада энг яхши олийгоҳ қиламан, деб бемалол баралла айтоламан.

Ёз мавсумида ўзларингиз кўрдиларингиз. Деярли барча ректор ва директорлар Гавайи оролларида мазза қилиб дам олишди. Ман шу

олийгоҳимизда бирор янгилик, бирорта бунёдкорлик ишини қилай ёки ходимларимга янада қулай шароит яратай деб футболка-шортикда тупроқ кечиб юрдим. Бу ҳам бўлса сиз азиз жамоамни манга билдирган ишончларингизни оқлашга бўлган интилишимдир.

Оралариздан сардор чикмагунча раҳбарлигимини давом эттириб тураман ва ёки топширинг десалариз ҳозирок раҳбарлигимни топширишга тайёрман.

Илмий ишлар бўйича. ТАТУ Фарғона филиали республикамиздаги 300 га яқин олий таълим муассасалари ичида **45 таликка кирганини** мамнуният билан маълум қилмоқчиман. Ушбу 45 талик рўйхатда ҳам **21-ўрнини забт этдик.** Маълумот ўрнида Тошкент ТАТУ ушбу рўйхатни 39-ўрнини эгаллади.

Ўтган икки ой давомида ҳам филиалимизнинг илмий салоҳияти ўсишда давом этди. Жумладан, Ахборот технологиялари доценти **Эргашев Отабек Мирзапўлатович** техника фанлари бўйича, Ўзбек тили ва гуманитар фанлар кафедраси мудир **Кочкарова Гулнара Деҳканбаевна** эса фалсафа фанлари бўйича доцент илмий унвонига шунингдек, илмий ишлар ва инновациялар бўйича директор ўринбосари **Полвонов Бахтиёр Зайлобидинович** физика-математика фанлари бўйича профессор илмий унвонига эга бўлдилар.

Кечагина эса хорижий тиллар кафедраси мудир **Обидова Гулмира Кузибаевна** педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация ишини муваффақиятли ҳимоя қилди.

Хорижий тиллар кафедрасининг яна бир аъзоси катта ўқитувчи **Муминова Муаттархон Алишеровна** филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дипломига эга бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги “Ўзархив” агентлиги директори вилоятдаги фаол ёшлар билан учрашуви давомида вилоят ёшларининг стартап лойиҳалари билан танишди. Бунда филиалимизнинг Ахборот хавфсизлиги профессор-ўқитувчилари Р.Раҳматов, К. Мўминов, М.Мухториддинов ва магистр А.Абдуллаевлар томонидан тақдим этилган лойиҳалар барча иштирокчи ёшлар ўртасида фахрли 1- ва 2-ўрин учун муносиб деб топилиб, агентлик раҳбарининг эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Филиалимиз ассистенти Тошматов Шерзод томонидан ишлаб чиқилган янги “Ақлли йўл” белги ишланмаси тегишли тажриба синовларидан ўтиб амалиётга татбиқ этилди.

ТАТУ Фарғона филиали тарихида илк мартаба Дастурий инжиниринги илғор муҳандислик мактаби ташкил этилди.

Филиалда иқтидорли талабалар ва истеъдодли ёшлар фаолияти бўйича. Фарғона вилоятида “Кибермаданиятни юксалтириш ойлиги” тарғибот-ташвиқот тадбирлари доирасида вилоят ҳокими Хайрулло Бозоров иштирокида “Энг яхши миллий контент” танловининг тақдирлаш маросими бўлиб ўтди. Бунда филиалимизнинг Компьютер инжиниринги факультети талабаси Назиров Қодиржон Нодирович фаол иштироки учун ноутбук ва бир марталик мукофот пуллари билан тақдирланди.

Компьютер инжиниринги факультетининг иқтидорли талабаларидан бири Мухаммадов Азизбек Зокиржон ўғли “Послы просвещения” номли халқаро танловда фаол иштирок этиб, махсус сертификат ҳамда “Ағарту элчиси” кўкрак нишони билан тақдирланди.

Мазкур факультетнинг яна бир иқтидорли талабаси Бекмуҳаммедов Иброҳимжон Зайлобиддин ўғли Ўзбекистоннинг “Феникс” (Phoenix) наشريёти ҳамда нуфузли хорижий ташкилотлар ҳамкорлигида ташкил этилган “Буюк жадидчилар издоши” халқаро танловида ўзининг илмий-ижодий иши билан фаол иштирок этиб, диплом, “Буюк жадидчилар” кўкрак нишони ва статуеткаси билан тақдирланди.

Халқаро алоқалар бўйича. Ўтган ойда Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан Самарқанд шаҳридаги “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университетида Ўзбекистон-Қирғизистон ректорларининг II форуми бўлиб ўтди. Ушбу анжуманда Қирғизистон Республикаси Таълим ва фан вазири бошчилигида ташриф буюрган 30 га яқин етакчи олий таълим муассасаси ректорларидан иборат делегация ва Ўзбекистон томонидан 30 дан ортиқ олийгоҳ раҳбарлари, вазирлик ва идоралар масъуллари қатнашди. Шунингдек, ушбу форумда филиалимиз раҳбарияти ҳам муносиб иштирок этди.

ТАТУ Фарғона филиалида Корея Республикаси Фан вазирлиги хузуридаги НИА (Миллий ахборот жамияти агентлиги) томонидан ташкил этилган ИАС (Ахборотга кириш маркази) фаолиятини ўрганиш мақсадида ИНХА университети проректори, профессор Донгки Сунг ташриф буюрди.

Ташриф мобайнида ИАС корейс марказида ташкил этилган ўқув шароитлари ва тўғарақлар фаолияти билан таништирилди.

Шунингдек, филиалда сунъий интеллект лабораторияларини ташкил этиш, марказ фаолиятига хорижий профессор-ўқитувчиларни таклиф қилиш масалалари ҳам муҳокама қилинди.

Ўқув ишлари бўйича. Ўтган ойда филиалимизга бир қатор соҳа раҳбарлари ташриф буюрдилар. Жумладан, Рақамли технологиялар вазири Шерматов Шерзод Хотамович филиал фаолияти ва бу ерда амалга оширилган улкан бунёдкорлик ишлари билан танишиб, таълим сифатини янада ошириш ва бошқа кўплаб масалалар бўйича топшириқлар берди.

Шунингдек, филиалга Олий таълим, фан ва инновациялар вазири ўринбосари Сарвархон Бузрукхонов ташриф буюриб, амалга оширилаётган қурилиш ишлари ва янги ўқув йилига тайёргарлик жараёнлари билан танишди.

Филиалимизнинг магистр ва бакалавр битирувчи курс талабаларига диплом топшириш маросими бу йил ҳар галгидан ўзгача руҳда ўтди. Ушбу тадбирга Фарғона вилояти ҳокимлиги вакиллари, ҳудудий бошқарма раҳбарлари, филиал раҳбарияти, профессор-ўқитувчилар, ота-оналар ва талабаларнинг яқинлари ташриф буюрдилар. Бу ҳақида Фарғона телеканалининг информацион дастури орқали махсус лавҳа тайёрланиб эфирга узатилди.

2023/2024-ўқув йилида ТАТУ Фарғона филиалини 615 нафар битирувчи тамомлади. Шундан, 11 нафари магистр, 604 нафари бакалавр даражасидаги битирувчилардир.

ТАТУ Фарғона филиалида 2024/2025-ўқув йили учун техникумларни муваффақиятли тамомлаган битирувчилар ҳамда иккинчи мутахассислик таълимига ҳужжат топширган талабгорларни ўқишга қабул қилиш мақсадида суҳбат жараёнлари ўтказилди. Бунда филиал профессор-ўқитувчиларидан

тузилган комиссия томонидан талабалikka номзодларнинг билимлари синовдан ўтказилди.

Бугунги кунда республика ОТМларида қабул квоталари сезиларли даражада камайган бир вақтда филиалимизда 2 баробарига кўпайтирилди. Магистратура мутахассислиги бўйича яна қўшимча 5 та йўналиш ташкил этилди.

Маънавий-маърифий ишлар ва спорт соғломлаштириш масалалари. Ўтган ўқув йилидаги 12 нафар олтин ва кумуш нишон совриндорларига маънавий линияси доирасида ички туризм қилиб, Самарқанд шаҳрига бепул саёҳат ташкил этилди.

Фарғона шаҳрида жойлашган “Сентрал Эйшен Медикэл Университи” халқаро тиббиёт университетида Фарғона вилоятидаги Олий таълим муассасалари ректорлари ўртасида спортнинг “Стол тенниси” тури бўйича “Ректорлар кубоги” ташкил этилди. Бунда филиалимиз раҳбарияти билан фаол иштирок этиб, этакчи ўринлардан бирини банд этдик.

Фарғона вилояти ички ишлар бошқармасида ўтказилан навбатдаги маънавий-маърифий дарс машғулотида филиалнинг Ахборот хавфсизлиги кафедраси ассистенти М.Мухториддинов “Бугунги дунёнинг геосиёсий манзараси” мавзусидаги марузаси билан иштирок этди.

Машғулот сўнггида бошқарманинг эсталик совғалари топширилди ва бундан кейинги ҳамкорлик режалари келишиб олинди.

Филиал раҳбарияти Қўштепа тумани, Қайрағоч маҳалласида истиқомат қилувчи ёшлар билан учрашув ўтказди. Учрашувда ёшларнинг мурожаатлари ўрганилиб, муаммоларни ҳал этиш бўйича амалий ёрдам бериш чоралари кўрилди.

2024/2025-ўқув йилида филиал талабаларни муносиб кутиб олиш ва уларни турар жой билан тезкор таъминлаш мақсадида талабалар турар жойлари ва ижара хонадонлари бўйича маълумотлар марказлари фаолият олиб бормоқда. Ушбу марказ ва ишчи гуруҳнинг асосий вазифаси қўшни туман ҳамда узоқ вилоятдан келиб, таълим олувчи талабаларга амалий ёрдам беришдан иборатдир.

Филиалда янги ўқув йилига тайёргарлик кўриш ишлари қизғин амалга оширилиб, уюшқоқлик билан умумхалқ хайрия ҳашари кўтаринки руҳда ўтказилди.

Хурматли жамоа яна бир масалага алоҳида тўхталиб ўтмоқчиман. Минг афсуски буни айтишга мажбурман. Соқол ва рўмолга аҳамият берайлик. Талабаларимиз биздан ўрнатқ олади, улар учун биз намуна бўлайлик.

Filial direktori F.Muxtarov yig‘ilishda filial strukturasi va lavozimlarida yuzaga kelgan ayrim o‘zgarishlar haqida axborot berdi.

Axborot texnologiyalari kafedrasiga asisstenti Jo‘rayev Jahongir Nurmaxamadovichga jamoatchilik asosida transfer va tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajarish yuklatiladi.

TATU Farg‘ona filiali televideniya-siga mas‘ul etib Ermatova Zarina Qaxramanovna tayinlanadi va filial asosiy binosida alohida xona ajratilib shu yerda faoliyat yuritsin hamda uning oylik maoshiga qo‘shimcha ustama belgilash tavsiya qilinadi.

Vasiylik kengashi raisi etib Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasida dotsenti Jo'raev Nurmahamad Mamatovich tayinlanadi. Vasiylik kengashining doimiy ofisi sifatida Strategiya va istiqbolni belgilash markazi taklif qilinadi.

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari vazifasini bajarish va Telekommunikatsiya injiniringi va kasb ta'limi fakulteti dekani etib Kompyuter injiniringi fakulteti dekani Otaqulov Oybek Xamdamovich tavsiya qilinadi.

Sirtqi bo'lim boshlig'i lavozimiga Tabiiy fanlar kafedrasida mudiri To'xtasinov Dadaxon Farxodovich tavsiya qilinadi.

Kompyuter injiniringi fakultet dekani lavozimiga Sirtqi bo'lim boshlig'i Norinov Muhammadyunus Usibjonovich tavsiya etiladi.

Kengash a'zolari berilgan takliflarni bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Filial direktori F.Muxtarov yig'ilishda filial strukturasi va lavozimlarida yuzaga kelgan ayrim o'zgarishlar haqida axborot berdi.

Filial strukturasi optimallashtirish maqsadida ba'zi o'zgarishlar qilishga to'g'ri keldi. Jumladan, 2024/2025-o'quv yilidan boshlab iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi, Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot fakulteti tarkibidan chiqarilib, Telekommunikatsiya injiniringi va kasb ta'limi fakulteti tarkibiga o'tkaziladi. Shu sababli, Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot fakulteti nomi kengash qarori bilan Dasturiy injiniring va kiberxavfsizlik fakultetiga o'zgartirish taklifi berildi.

Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishiga mas'ul etib, Axborot-ta'lim texnologiyalari kafedrasida tayinlanishi munosabati bilan ushbu kafedra nomi Iqtisodiyot va kasb ta'limi kafedrasiga o'zgartirish taklifi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 20-iyun kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 32-son bayonida belgilangan vazifalar qatorida ilg'or muhandislik maktabini yaratish va rivojlantirish topshiriqlari berilgan. Ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash yuzasidan Kompyuter injiniringi fakulteti nomini Kompyuter injiniringi va sun'iy intellekt fakulteti tarzida o'zgartirish taklifi berildi.

Bundan tashqari, Xorijiy tillar va O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedralari birlashtirilib, birgalikda O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida faoliyat olib borish, yangidan tashkil etilgan kafedra mudiri lavozimini tayinlash to'g'risidagi masalani keyingi filial kengashida ko'rib chiqish taklifi berildi.

Muhokamada o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari T.Abdullayev so'zga chiqib, Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot va Telekommunikatsiya injiniringi va kasb ta'limi fakultetlari talabalari soni optimallashtirish, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishiga mas'ul belgilanganligi to'g'ri yechim bo'lganini aytdi. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Polvonov ilg'or muhandislik maktabini yaratish va rivojlantirish bo'yicha har ikki fakultetning nomini o'zgartirish birinchi qadam bo'lishini ta'kidladi.

Yuqorida filial direktori tomonidan berilgan takliflar filial kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Янги 2024/2025 ўқув йилида бажариладиган истиқболли режаларни таништириб ўтмоқчиман.

Хурматли жамоа! барчангизга маълумки, ўтган ўқув йилидан эътиборан филиалнинг олтин ва кумуш нишонлари таъсис этилган эди. Эндиликда ушбу нишонларга яна бир **нишонини** ҳам қўшсак нима дейсизлар?

Ушбу **platinum нишонининг** совриндори ҳар чоракда 1 оклад миқдориди моддий рағбатлантирилади ҳамда Европанинг 7 та давлатига саёҳатга юборилади. Бухгалтерия ва молия-режа бўлими саёҳатнинг барча харажатларини тўлаб беради. Илмий бўлим ушбу давлатлардаги стажировка ўташи мумкин бўлган таълим муассасаларига бириктириб беради яъни ушбу саёҳат давомида ҳам туризм ҳам илмий жиҳатлар кўзда тутилади.

Бундан ташқари, ушбу ўқув йилида амалга оширишимиз керак бўлган **30 дан ортиқ режаларимиз бор**, уларни кенгаш аъзолари билан батафсил муҳокама қиламиз.

Хурматли жамоа филиал профессор-ўқитувчиларининг кадр-қиммати доимо биринчи ўринда бўлиб келган, бугундан бошлаб энг олий ўринга кўйилади. Агар кимда ким устозларни камситишга қаратилган қандайдур тадбир қилса унга нисбатан кескин қонуний чора кўрилади.

Шунингдек, филиалда профессор-ўқитувчи ва ишчи-ходимлар ҳамда талабалар учун ягона форма ташкил этсак нима дейсизлар.

Бугунги кенгайтирилган йиғилишда жамоага етказиладиган масалалар шундан иборат эди. Йиғилиш кун тартибидаги асосий масалаларни кенгаш аъзолари билан кичик мажлислар залида давом эттирамиз.

Эътиборингиз учун раҳмат.

Kun tartibining ikkinchi masalasida Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш, назорат ва мониторинг бўлими бошлиғи А.Абдулхамидов ахборот берди.

TATU Farg'ona filialiga joriy yilning **2024-yil 1-avgust kundan 29-avgust kunigacha** yuqori tashkilotlardan va idoralardan kelib tushgan hujjatlar hamda topshiriqlar soni jami **166 tani** tashkil etdi.

№	Tashkilot nomi	Xisobot davrida xujjatlar soni	
1	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan	105 ta	
		Shundan:	
		Buyruqlar	15 ta
		Xatlar	89 ta
		Qo'shma qaror	1 ta
2	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetidan	14 ta	
		Shundan:	
		Buyruqlar	3 ta
		Xatlar	11 ta
3	Farg'ona viloyat hokimligidan	Xatlar	16 ta
4	Tashkilotlardan	28 ta	
5	Murojaatlar	3 ta	
	JAMI	166 ta	

Shu bilan bir qatorda, bo'lim tomonidan **57 ta** ijrosi ta'minlangan hujjatlar nazortdan yechildi.

Devonxona tomonidan barcha xujjatlar **edo.ijro.uz** yagona elektron tizimiga kiritilib, mas'ullarga yuklatildi va ular tomonidan ijrosi o'z vaqtida bajarilib kelinganligi nazoratga olindi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vertual kabulxonasidan va Web-saytdan filialga to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan murojatlar qayd etilmagan, yukori tashkilotlardan kelib tushgan murojaatlar esa **2024-yil avgust oyida 3 tani** tashkil etdi.

OTF va IV tomonidan va yuqori turuvchi tashkilotlardan **2024-yil 1-avgust kuni dan 29-avgust kuni gacha** kelgan buyruqlariga direktor o'rinbosarlari tomonidan loyihalar tayorlanib, filialning ichki buyruqlari ishlab chiqilgan va ijroga qaratilgan.

Ушбу масала юзасидан директор ўринбосарлари ва факультет деканлари фикр-мулоҳаза билдирдилар.

Kun tartibining uchinchi masalasida filial o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari T. Abdullayev axborot berdi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi "Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" haqidagi PQ-91-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2005-yil 14-iyundagi 130-son buyrug'iga asosan tashkil etilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektorining 2005-yil 23-iyuldagi buyrug'i).

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialida 3 ta fakultet, sirtqi bo'lim va 9 ta kafedra bo'lib, 124 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi, ilmiy salohiyat 40,3% ni tashkil qiladi.

Kompyuter injiniringi fakultetida: Axborot texnologiyalari, Kompyuter tizimlari, Tabiiy fanlar kafedralari, Telekommunikatsiya injiniring va kasb ta'limi fakultetida: Telekommunikatsiya injiniringi, Kasb ta'limi va raqamli iqtisodiyot, Xorijiy tillar kafedralari, Dasturiy injiniringi va raqamli iqtisodiyot fakultetida: Dasturiy injiniringi, Axborot xavfsizligi O'zbek tili va Gumanitar fanlar kafedralari faoliyat olib boradi.

2024/2025-o'quv yilida filialda 10 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 9 ta magistratura mutaxassisliklarida – 4925 nafar (shulardan, bakalavriatda kunduzgi – 2498 nafar, sirtqida – 1688 nafar, masofaviy ta'limda – 477 nafar, ikkinchi mutaxassislikda – 195 nafar, magistraturada – 67 nafar talaba tahsil olishi rejalashtirilmoqda.

Malaka talablari va o'quv rejalari. 2024/2025 o'quv yilida filialda 1-kursda 10 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 9 ta magistratura mutaxassisliklarida, 2-kursda 12 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 5 ta magistratura mutaxassisliklarida, 3-kursda 8 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida, 4-kursda 7 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

1-kurs barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli va barcha magistratura mutaxassisliklari uchun 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyruq bilan tasdiqlangan malaka talablari mavjud.

2-kurs barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklarining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli, 29-avgustdagi 397-sonli buyruqlar bilan tasdiqlangan malaka talablari mavjud.

3-kurs va 4-kurs barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2021-yil 25-avgustdagi 365-sonli buyruq bilan tasdiqlangan malaka talablari mavjud.

Mutaxassislik tanlov fanlari soha ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan va barcha o'quv dasturlariga kadr iste'molchilarining xatlari mavjud.

Filialda 2024-2025-o'quv yili uchun o'quv yuklamalar va shtat birliklari shakllantirilgan. Kafedralarning o'quv yuklamalari hisoblangan. 2024-2025-o'quv yiliga jami o'quv yuklama 136726 soatni tashkil etadi. Filialga ajratilgan shtat 183 ta. O'rtacha o'quv yuklama 694 soatni tashkil etmoqda.

Yangi o'quv yilida asosiy shtatda 124 nafar professor-o'qituvchilarning 2 nafari fan doktori, professor, 48 nafari fan nomzodi, dotsentlar bo'lib, ilmiy salohiyat 40,3%ni tashkil etgan. Kafedralarda o'quv yuklamalari taqsimoti amalga oshirilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan.

Filialdagi barcha kafedralarda o'quv yuklamalar hisoblangan va professor-o'qituvchilarga mutaxassisliklari bo'yicha to'g'ri taqsimlangan.

t/r	Kafedra nomi	Yuklama	Shtat	Asosiy shtatdagi prof-o'qit.lar soni	Shulardan (soni)			
					Professor	Dotsent	Katta o'qituvchi	Assistent
1	Axborot texnologiyalari	32152	31	21	1	7	3	10
2	Kompyuter tizimlari	16872	23	13		3	2	8
4	Tabiiy fanlar	12578	21	17	1	8	3	5
5	Telekommunikasiya injiniringi	14547	18,25	17		5	5	7
6	Iqtisodiyot va kasb ta'limi	11303	14,25	8		3	1	4
7	Xorijiy til	8190	14	8		2	2	4
8	Dasturiy injiniring	18002	25,25	16		4	5	7
3	Axborot xavfsizligi	9502	13,25	11		7	1	3
9	O'zbek tili va gumanitar fanlar	9406	16	13		9	2	2
10	Ochiq tanlov fanlari	4174	7					
Jami		136726	183	124	2	48	24	50

Yangi o'quv yili uchun dars jadvalini tasdiqlanganligi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 321-sonli buyrug'i bilan filialda o'quv jarayoni 9-sentabrdan boshlanishi belgilangan. Bu ma'lumot barcha professor-o'qituvchi va talabalarga yetkazilgan. Ishlab chiqilgan o'quv jarayoni grafigiga ko'ra 9-sentabrdan 14-sentabrgacha barcha ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun kredit xaftasi etib

belgilangan. Shu sababali, fan tanlovlari uchun dars jadvallari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dars jadvali “Расписание уроков: «Ректор» — программа лидер!” dasturi yordami ishlab chiqilgan.

O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq 3-kurslarda ochiq tanlov fani blokida 5 ta fanlardan tanlovlar o‘tkazilsa, 4-kurslarda har bir ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 3 tadan IT mutaxassislik tanlov fanlari uchun 9-10 tadan fanlardan tanlovlar o‘tkaziladi.

Auditoriyalarning yangi o‘quv yiliga tayyorlanganligi. Filialda 2 ta o‘quv binosi mavjud. 1-o‘quv binosida 950 o‘quv o‘rni mavjud. 2-o‘quv binoda esa 450 o‘quv o‘rni mavjud. Jami filial bo‘yicha 1400 o‘rin bo‘lib, o‘qitish koeffitsienti 1,8 ni tashkil etadi va o‘quv jarayoni 2 smenada tashkil etilgan.

Shuningdek, 1-binoda 36 ta, 2-binodan 19 ta, jami 55 ta auditoriyalar mavjud. Ularning 19 tasi ma’ruza xonasi, 9 tasi amaliy mashg‘ulot xonasi, 10 tasi o‘quv-laboratoriya, 17 tasi kompyuter sinfidan iborat. Bundan tashqari, 1 tasi katta majlislar zali, 1 ta yopiq sport zalidan ham o‘quv jarayonidan foydalanib boriladi. Barcha auditoriyalar zamonaviy AKT jihozlari va multimedia qurilmalari bilan jihozlangan, jumladan 55 ta auditoriyaning barchasida interaktiv doska mavjud. O‘quv jarayonida 520 ta kompyuterlardan foydalaniladi.

Muhammad al-Xorazmiy TATU Farg‘ona filialida laboratoriya ishlarini bajarish uchun 10 ta o‘quv laboratoriya tashkil etilgan: Tabiiy fanlar kafedrasida 2 ta fizika o‘quv laboratoriyasi va 1 ta hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv laboratoriyasi, Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasida 5 ta o‘quv-laboratoriyasi, Axborot texnologiyalari kafedrasida 1 ta o‘quv laboratoriyasi va Axborot xavfsizligi kafedrasida 1 ta o‘quv laboratoriyasi mavjud bo‘lib, barchasi talab darajasida o‘rnatilgan.

Kun tartibining tўrtinchi masalasida Ўқув-услугий бўлим бошлиғи Ш.Умаров **axborot berdi.**

Ўқув-услугий бўлим бошлиғи Ш.Умаровнинг ахбороти: Filialda 2 ta fakultet va 9 ta kafedra mavjud bo‘lib, ularda 124 nafar prfoessor-o‘qituvchi faoliyat olib bormoqda. 2024-2025-o‘quv yilida bajariladigan ishlar rejasini muhokama qilish yuzasidan barcha kafedralarda yig‘ilishlari o‘tkazilgan. Unda kafedra yillik ish rejasi, kafedra o‘quv yuklamalari, kafedra professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamalari va unga mos shaxsiy ish rejalar hamda fanlardan o‘quv dasturlar va sillabuslar tayyorlanib, filial Kengashida tasdiqlashga tavsiya qilinganligi to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonnomalaridan ko‘chirmalar taqdim etildi.

Kafedra ish rejalarini taqdim etganlar:

- Axborot texnologiyalari kafedراسи;
- Kompyuter tizimlari kafedراسи;
- Tabiiy fanlar kafedراسи;
- Telekommunikatsiya injiniringi kafedراسи;
- Dasturiy injiniring kafedراسи;
- Axborot xavfsizligi kafedراسи;
- O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedراسи.

2024-2025-o‘quv yili uchun kafedra o‘quv yuklamalarini taqdim etganlar:

- Axborot texnologiyalari kafedراسи;

- Kompyuter tizimlari kafedrası;
- Tabiiy fanlar kafedrası;
- Telekommunikatsiya injiniringi kafedrası;
- Iqtisodiyot va kasb ta'limi kafedrası;
- Xorijiy tillar kafedrası;
- Dasturiy injiniring kafedrası;
- Axborot xavfsizligi kafedrası;
- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrası.

2024-2025-o'quv yili uchun sillabuslarni taqdim etganlar:

- Axborot texnologiyalari kafedrası;
- Kompyuter tizimlari kafedrası;
- Tabiiy fanlar kafedrası;
- Telekommunikatsiya injiniringi kafedrası;
- Dasturiy injiniringi kafedrası;
- Axborot xavfsizligi kafedrası;
- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrası.

2024-2025-o'quv yili uchun professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini taqdim etganlar:

- Axborot texnologiyalari kafedrası;
- Kompyuter tizimlari kafedrası;
- Telekommunikatsiya injiniringi kafedrası;
- Axborot xavfsizligi kafedrası.

Kafedralar yig'ilishlarida assistentlarga ma'ruza soatlar ajratish bo'yicha takliflar berilgan. Ushbu takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 10 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 20-2018-son buyrug'i ilovasining 2-bob 8-bandi asosida belgilangan.

Telekommunikatsiya injiniringi kafedrası bo'yicha

- | | |
|------------------------|------------|
| – Tojiboyev Ilxom | - 248 soat |
| – Tillaboyev Muxiddin | - 140 soat |
| – Komilov Davron | - 54 soat |
| – Maxmudov Isroil | - 44 soat |
| – Abdusamatov Xasanboy | - 54 soat |
| – Xusanova Soxiba | - 44 soat |
| – Madaminov Muxriddin | - 48 soat |

Axborot texnologiyalari kafedrası bo'yicha

- | | |
|-----------------------------------|------------|
| – Xodjimatrov Jahongir Murodovich | - 132 soat |
| – Abdullayeva Moxigul | - 42 soat |
| – Toxirova Sarvinoz | - 24 soat |
| – Qadamova Zulayho | - 42 soat |
| – Xakimov Axror | - 48 soat |
| – Toshmatov Sherzod | - 42 soat |
| – Nabijonov Ravshanbek | - 36 soat |
| – Abdulhamidov Aziz | - 44 soat |

– Ergashev Otabek Ismoilxon o‘g‘li - 44 soat

Axborot xavfsizligi kafedrası bo‘yicha

– Raxmatov Rasuljon - 56 soat

– Sadirova Xursanoy - 54 soat

– Mo‘minov Kamolxon - 54 soat

– Arabboyev Alisher - 24 soat

– Muxtoriddinov Muxammadyusuf - 60 soat

Tabiiy fanlar kafedrası bo‘yicha

– Qodirov Xatamjon Anvarovich - 108 soat

– Saidov Mansur Inomjonovich - 52 soat

– Madibragimova Iroda Muxamaedovna - 180 soat

– Bozorqulov Adhamjon Abdujabborovich - 60 soat

– Satvoldiyev Inomjon Abdusalimovich - 90 soat

Kompyuter tizimlari kafedrası bo‘yicha

– Raxmatova Gavxaroy - 250 soat

– Mirkomilov Doniyor - 60 soat

– Yo‘ldosheva Dilfuza - 60 soat

O‘zbek tili va gumanitar fanlar, Xorijiy tillar kafedralarida assistentlarga ma’ruza dars mashg‘ulotlari berilmagan.

Yillik ish rejalar va professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejaları yuzasidan filial direktori F.Muxtarov, direktor o‘rinbosarlari B.Polvonov, B.Tolipov va T.Abdullayev, O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i Sh.Umarov va TSNQB boshlig‘i M.Teshaboyevlar fikr-mulohazalarini bildirdilar. Филиал структурасида ҳамда лавозимлардаги ўзгаришларни инобатга олган ҳолда kafedralarning yillik ish rejaları, fanlarning ishchi o‘quv dasturlari, fanlarning o‘quv-uslubiy majmualari, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejaları kengash a‘zolarining taklifiga asosan 4-сентябрь куни навбатдан ташқари йиғилиш ўтказиш ва тасдиқлашга қарор қилинди.

Kun tartibining beshinchi masalasida Kengash kotibi N. Qurbonov yig‘ilganlarni filial Kengashining bir yillik ish rejasi, Nizomi va reglamenti hamda tanlov bo‘yicha Maslahat kengashi a‘zolari ro‘yxati, Nizomi, bundan tashqari Kengash a‘zolari, Boshqaruv yig‘ilishi a‘zolari ro‘yxati bilan tanishtirdi (ro‘yxat ilova qilinadi). Yuqoridagi hujjatlar taklif va mulohazalar asosida ma‘qullandi.

Fakultet dekanlari B. Daliyev hamda N.Ibroximovlar dekanatlar hamda fakultet Kengashilarining bir yillik ish rejaları mazmuni bilan yig‘ilganlarni tanishtirib o‘tdilar. Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Z.Otaxonova ushbu kengashning 2023-yil 28-avgustda o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi mazmuni va qarorlari, uning yillik ish rejasi va a‘zolari ro‘yxati bilan Kengash a‘zolarini tanishtirib o‘tdi. Vasiylik jamoatchilik Kengashi raisi esa Kengashning yillik ish rejasi hamda a‘zolari ro‘yxati bilan Kengash a‘zolarini tanishtirib o‘tdi.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash bo‘limi boshlig‘i S. Zokirov rag‘batlantirish ishchi guruhi a‘zolari ro‘yxati, Nizomi, nomdor stipendiyalar bo‘yicha Nizom va Ishchi guruh ro‘yxati kabi hujjatlar

